Shuningdek, kirish imtihonlari natijalariga ko'ra Davlat komissiyasi tomonidan belgilanadigan minimal baldan kam ball to'plagan abituriyentlarga birinchi o'quv yiliga amalda oshirilgan to'lov-kontraktning ta'lim yo'naliishi bo'yicha belgilangan eng yuqori

miqdorining 2 barobariga teng to'lovnini amalga oshirish sharti bilan o'qishga kirish huquqi beriladi.

Ushbu imkoniyatlar avvalambor, mamlakatimiz aholisini oliv ta'lim bilan qamrab olinishini kengayishiga olib kelsa, ikkinchidan oliv ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini oshishiga xizmat qiladi. Chunki, bu holat o'qitishning to'lov-kontrakt shaklidan tushgan mablag'lar hajmining oshirilgan hamda tabaqalashtirilgan kontrakt mablag'lari hisobiga oshishiga olib keladi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida byudjet mablag'laridan maksimal darajada samarali foydalanish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shuni hisobga olgan holda, oliv ta'lim tizimini moliyalashtirishda nobyudjet moliyaviy manbalarning, jumladan byudjetdan tashqari jamg'armalarning ham o'rni yuqori hisoblanadi. Oliy ta'lim tizimi mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishida muhim o'rinni tutar ekan, uni yetarlicha moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlanishiga e'tibor qaratish lozim. Chunki, oliv ta'lim tizimi moliyaviy boshqaruv sohasida ko'plab tadqiqot ishlarini olib borgan olim, iqtisod fanlari doktori, professor M.X.Saidov ta'kidlaganlaridek, "Oliy ta'lim tizimini yetarli mablag' bilan ta'minlamay turib, undan sifatlari ta'lim tizimini, malakali kadrlar yetkazib berishni talab qilish, oxir-oqibatda ushbu sohaning parokandalikka olib kelishi mumkin" [3].

Shularni hisobga olgan holda, oliv ta'lim muassasalarining byudjetdan tashqari mablag'lari va daromadlari jamg'arilishini ta'minlash, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda xodimlarini moddiy rag'batlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 26 fevralda "O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining Oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirish jamg'armasi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 172-sonli qarori bilan "O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining Oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirish jamg'armasi to'g'risida"gi nizom tasdiqlandi.

Ushbu nizom orqali mazkur jamg'arma mablag'larini shakllantirish va undan foydalanish tartibi, jamg'armani boshqarish, jamg'arma mablag'larini hisobini yuritish, ular bo'yicha hisobot tayyorlash va nazorat qilish tartiblari keltirib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 17 apreldagi "Ta'lim muassasalarida uni bitirib, yuksak yutuqlarga erishgan nomdor shaxslarning homiylik xayriya mablag'lari hisobiga shakllantiriladigan bitiruvchilar jamg'armasini tashkil etish to'g'risida"gi 321-sonli qarori va ushbu qaror ilovasi bilan tasdiqlangan "Ta'lim muassasalarida uni bitirib, yuksak yutuqlarga erishgan nomdor shaxslarning homiylik xayriya mablag'lari hisobiga shakllantiriladigan bitiruvchilar jamg'armasi to'g'risida" nizom ham oliv ta'lim muassasalarini nobudjet manbalar hisobiga moliyalashtirshda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu nizomga muvofiq jamg'arma tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'iy nazar davlat, nodavlat ta'lim muassasalarida va O'zbekiston Respublikasi hududida tashkil etilgan xorijiy ta'lim muassasalarining filiallarida ta'lim muassasalari rahbarlarining tegishli buyrug'iga muvofiq tashkil etilishi mumkin. Shuningdek, mazkur nizomda jamg'arma mablag'larini shakllantirish va undan foydalanish tartibi, jamg'arma mablag'larini boshqarish, jamg'arma mablag'laridan foydalanish bo'yicha hisobot tayyorlash va nazorat qilish tartiblari keltirib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasida oliv ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalişlarini belgilash, zamonaviy bilim hamda yuksak ma'naviy-ahloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga

ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrda "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli farmoni tasdiqlangan bo'lib, ushbu farmon bilan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi tasdiqlandi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi hamda O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari rektorlari kengashi negizida nodavlat notijorat tashkilot shaklidagi Respublika oliy ta'lim kengashini tashkil etilishi belgilandi. Shu bilan birga mazkur farmonda oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligi va barqarorligini ta'minlash, moddiy-texnik ta'minotini mustahkamlashga bag'ishlangan alohida paragraf mavjud bo'lib, mazkur paragrafda oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligi va barqarorligini ta'minlash, moddiy-texnik ta'minotini mustahkamlash bo'yicha bir qator tadbirlar amalga oshirilishi belgilangan [18].

Shuningdek, mazkur farmonda oliy ta'lim muassalarida endaument fondlarini tashkil etish hamda oliy ta'lim tizimini vechurli moliyalashtirish mexanizmini qo'llashga ruxsat berilgan.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ushbu konsepsiada nodavlat, shu jumladan davlat-xususiy sheriklik shartlari asosidagi oliy ta'lim muassasalarini tashkil etish rejalashtirilgan bo'lib, 2030 yilga kelib bu ko'rinishdagi oliy ta'lim muassasalari sonini 35 taga yetkazish ko'zda tutilgan.

Hozirgi kunda mamlakatimizda ta'lim tizimini rivojlantirishning huquqiy bazasini mustahkamlash borasida qabul qilinayotgan hujjatlardan biri bu 2019 yil 29 oktyabrda qabul qilingan "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonunidir. Ushbu qonun mamlakatimizda ilm-fanni yanada rivojlantirish, uning natijadorligini oshirish, ilm-fanni rivojlanishiga o'z hissalarini qo'shayotgan tashkilotlar va olimlarni qo'llab-quvvatlash, ularni rag'batlantirish, uni moliyalashtirish manbalari aniq qilib belgilangan asosiy hujjatlardan biri bo'ldi. Ushbu qonunning ham alohida bobি (5-bob) aynan ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasini moliyalashtirishga bag'ishlangan bo'lib, ushbu bobda ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasini moliyalashtirish yo'nalishlari hamda ularning mazmuni yoritilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 3 dekabrdagi "Oliy ta'lim muassasalarini bosqichma-bosqich o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tkazish to'g'risida"gi 967-sonli qarori oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish tizimida bir qator o'zgarishlar amalga oshirildi. Ushbu qaror bilan mamlakatimizdagи moliyaviy faoliyati barqaror, moddiy-texnika bazasi yetarli darajada shakllangan, ta'lim xizmatlari bozorida bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklariga bo'lgan talab yuqorilagini hisobga olib, tajriba-sinov sifatida 10 ta oliy ta'lim muassasalari o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tkazildi hamda ushbu oliy ta'lim muassasalariga akadem va moliyaviy sohalarda bir qator erkinliklar yaratildi.

Shuningdek, ushbu qarorga muvofiq oliy ta'lim muassasalari vasiylik kengashlariga bir qator vakolatlar berildi, jumladan:

- oliy ta'lim muassasasining moliya yili uchun shakllantiriladigan biznes-rejasi (unda muassasaning asosiy faoliyati ko'rsatkichlari jumladan, muassasada kadrlar tayyorlash tizimini tashkil etishning maqsadlari, rejalashtirilayotgan natijalari va tahlili ko'rsatiladi) hamda daromadlar va harajatlar parametrlarini tasdiqlash va ularning ijrosini muhokama qilish;

- oliy ta’lim muassasasi tomonidan avtotransport vositalari, shuningdek, boshqa asosiy vositalarni harid qilish va ularni hisobdan chiqarishga (bino va inshootlar bundan mustasno) hamda bino, inshootlarni kapital ta’mirlash, rekonstruksiya qilishga ruxsat berish;
- oliy ta’lim muassasasining yillik hamda davriy moliyaviy hisobotlarini muhokama qilish va tasdiqlash;
- oliy ta’lim muassasasini rivojlantirish va moliyaviy faoliyati bilan bog’liq boshqa masalalarni hal etish, shu jumladan maqsadli kapital jamg’armasini (endaument fond) shakllantirish;
- zarur hollarda, oliy ta’lim muassasasi rektorining asoslangan murojaatiga ko’ra, oliy ta’lim muassasasining moliyaviy faoliyatini qo’llab-quvvatlash maqsadida respublika tijorat banklaridan kreditlar olish masalalarini ko’rib chiqish;
- oliy ta’lim muassasasi faoliyatining asosiy yo’nalishlarini belgilab berish, shu jumladan, yangi fakultetlar, bakalavriat ta’lim yo’nalishlari va magistratura mutaxassisliklarini joriy etish;
- bo’ysunuvi bo'yicha tegishli vazirlik va idora bilan kelishilgan holda oliy ta’lim muassasasi rektori va oliy ta’lim muassasasi kengashi vakolatini belgilash, shu jumladan, harajatlar smetasiga hamda shtatlar jadvaliga o’zgartirishlar kiritish, asosiy vositalarni harid qilish va oliy ta’lim muassasi tasarrufidagi mablag’lar, moddiy boyliklar va mulkdan foydalanish bo'yicha vakolatlar doirasini belgilash;
- oliy ta’lim muassasasida samaradorlik mezonlariga asoslangan mehnatga haq to’lash tizimini joriy etish va tartibini belgilash [19].

Bunday o’zgarishlar nafaqat mamlakatimizda oliy ta’lim tizimini rivojlanishiga, shu bilan birga oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirish manbalarining kengayishiga, ularning moliyaviy barqarorligini oshishiga ham qo’shimcha imkoniyatlar yaratadi.

Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirishda va moliyalashtirishni samarali tashkil etishda 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to’g’risida” gi qonun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur qonun orqali ta’limning masofaviy shakliga ham ruxsat berildi, bu esa bevosita oliy ta’lim muassasalariga qo’shimcha mablag’larni jaib etish imkonini beradi. Mazkur qonunning 9-bobi “Ta’limni moliyalashtirish va davlat tomonidan qo’llab-quvvatlash” deb nomlanib, unga muvofiq “davlat ta’lim muassasalarini moliyalashtirish O’zbekiston Respublikasining respublika budgetidan, Qoraqalpog’iston Respublikasi budgetidan, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budgetlaridan, tumanlar va shaharlar budgetlaridan, kadrlar buyurtmachilarining mablag’lari hisobidan, shuningdek budgetdan tashqari mablag’lar hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

Nodavlat ta’lim tashkilotlarini moliyalashtirish muassislarining, kadrlar buyurtmachilarining pul va moddiy mablag’lari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

Davlat ta’lim muassasalari ustavida belgilangan vazifalarga muvofiq pulli ta’lim xizmatlari va boshqa xizmatlar ko’rsatish, shuningdek tadbirkorlik faoliyati bilan shug’ullanish huquqiga ega.

Pulli ta’lim xizmatlarini ko’rsatish davlat ta’lim muassasalarining asosiy faoliyatiga to’sqinlik qilmasligi kerak.

Davlat ta’lim muassasalarida qo’shimcha ta’lim xizmatlari ko’rsatganlik uchun haq undirish tartibi ular tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi.

Davlat ta'lim muassasalari pulli ta'lim xizmatlari va boshqa xizmatlar ko'rsatish hamda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish hisobidan olingan pul mablag'larini mustaqil ravishda tasarruf etishga haqli"[20].

Ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishning qo'shimcha manbalari quyidagilardan iborat:

- shartnomalar asosida, shu jumladan chet ellik jismoniy yoki yuridik shaxslar bilan tuzilgan shartnomalar asosida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hisobidan tushgan mablag'lar;
- jismoniy va yuridik shaxslarning buyurtmalari asosida ilmiy-tadqiqot, o'quv-uslubiy va qonunda taqiqlanmagan boshqa ishlarni bajarish hisobidan tushgan mablag'lar;
- ta'lim tashkilotlari tomonidan ishlab chiqilgan mahsulotni, bajarilgan ishlarni va ko'rsatilgan xizmatlarni realizatsiya qilishdan olingan daromadlar;
- binolar, inshootlar va asbob-uskunalarini ijara berish hisobidan tushgan mablag'lar;
- ta'lim tashkilotlarining bo'sh turgan pul mablag'larini bank muassasalariga depozitlarga joylashtirish hisobidan olingan pul mablag'ları (foizlar);
- davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, shuningdek mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ajratiladigan mablag'lar;
- bank kreditlari va ssudalari;
- jismoniy va yuridik shaxslarning xayriya mablag'ları.

Oliy ta'lim muassasalari faoliyatini moliyaviy boshqarishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrdagi "Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-60 va "Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-61-sonli qarorlari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

"Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-61-sonli qarorga ko'ra moliyaviy mustaqillik berilgan OTM soni 40 taga yetdi va ularga 2022-yil 1-yanvardan boshlab quyidagi masalalar bo'yicha mustaqil qaror qabul qilish vakolati berildi:

- to'lov-kontrakt asosida o'qitish qiymatini belgilash;
- talabalarning to'lov-kontrakt mablag'larini to'lash muddatlarini belgilash va uzaytirish;
- ta'lim jarayoniga mahalliy hamda xorijiy professor-o'qituvchi va mutaxassislarni shartnoma asosida jalb qilish;
- o'quv-ilmiy jarayonlarga jalb etilgan xorijiy yuqori malakali mutaxassislar mehnatiga haq to'lash miqdorlarini bozor konyunkturasidan kelib chiqib belgilashga oid qarorlar qabul qilish;
- professor-o'qituvchilar shtat birliklarini kiritish me'yorlarini ishlab chiqish;
- o'z mablag'ları hisobidan talabalar uchun stipendiya va grantlar ajratish;
- xorijiy davlatlardan o'quv va ilmiy adabiyotlar, darsliklar hamda o'quv qo'llanmalarni mualliflik huquqi bo'lgan ishlab chiqaruvchilardan to'g'ridan to'g'ri xarid qilish;
- bo'sh turgan bino va inshootlarda pullik xizmatlar ko'rsatish tartibini belgilash;
- avtotransport vositalarining yo'l bosish yillik limiti va ularga xizmat ko'rsatish talablarini belgilash.

Shu bilan birga, mazkur OTM moliyalashtirishning quyidagi tartibiga o'tkazildi:

– barcha ta’lim yo’nalishlari va bosqichlari bo‘yicha bir talaba uchun to‘g’ri keladigan o‘rtacha xarajat miqdori hisoblab chiqiladi;

– davlat buyurtmasi (davlat granti) asosida kadrlar tayyorlash uchun Davlat budgetidan ajratiladigan mablag’lar Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartib asosida bir talabaga to‘g’ri keladigan o‘rtacha xarajat miqdoridan kelib chiqib belgilanadi;

– davlat granti asosida ta’lim olayotgan talabalar uchun budget mablag’lari bo‘ysunuvi bo‘yicha tegishli vazirlik va idora hamda oliy ta’lim muassasasi o‘rtasida imzolanadigan bitim asosida ajratiladi (bundan maqsadli mablag’lar, shu jumladan stipendiya to’lovleri, yetim bolalar va ota-onalarning qaramog’idan mahrum bo‘lgan bolalarining ijtimoiy himoyasi uchun qonunchilikda belgilangan mablag’lar, oliy ta’limdan keyingi ta’lim xarajatlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining alohida qarorlari asosida ajratiladigan boshqa mablag’lar mustasno);

– davlat granti asosida ta’lim olayotgan talabalar uchun ajratilgan budget mablag’lari (bundan maqsadli mablag’lar mustasno) oliy ta’lim muassasasining budgetdan tashqari mablag’lari bo‘yicha shaxsiy g‘azna hisobvarag‘iga o‘tkaziladi va hisobot davri oxirida mablag’larning qoldig‘i oliy ta’lim muassasasi ixtiyorida qoldiriladi;

– davlat buyurtmasi sifatida ajratilgan mablag’lar hamda to‘lov-kontrakt mablag’lari bo‘yicha daromadlar va xarajatlar smetasi tegishliliqi bo‘yicha yuqori turuvchi vazirlik va idorada ro‘yxatdan o‘tkaziladi hamda ulardan foydalanish Budget tashkilotlarini rivojlantirish jamg‘armasi uchun belgilangan tartibga o‘xshash tartibda amalga oshiriladi. Bunda, moliya yili davomida daromadlar va xarajatlar smetasiga kiritiladigan o‘zgartirishlar Moliya vazirligi bilan kelishilmaydi;

– to‘lov-kontrakt asosida o‘qitish qiymati bir talaba uchun to‘g’ri keladigan o‘rtacha xarajat miqdoridan kelib chiqib, biroq oliy ta’lim muassasasini o‘zini o‘zi to‘liq moliyaviy ta’minalash, istiqbolda rivojlantirish hamda ta’lim xizmatlari bozoridagi o‘zaro raqobat asosida belgilanadi.

Shuningdek, moliyaviy mustaqillik berilayotgan davlat oliy ta’lim muassasalarida:

– asosiy vositalarni ijara berishdan tushgan mablag’ning 1 foizi — Davlat aktivlarini boshqarish agentligining hududiy bo‘linmalari huzuridagi davlat mulki ijara markazlariga, qolgan qismi — elektron savdo maydonchasi operatoriga to‘langan to‘lov chegirilgandan keyin mazkur oliy ta’lim muassasasining budgetdan tashqari rivojlantirish jamg‘armasiga yo‘naltiriladi;

– asosiy vositalar va tovar-moddiy boyliklarni (bundan er, bino, inshootlar, jumladan operativ boshqaruvga berilgan bino va inshootlar hamda o‘quv-ilmiy laboratoriya jihozlari mustasno) sotishdan tushgan mablag’lar to‘lig‘icha o‘z ixtiyorida qoldiriladi;

– moliyaviy nazorat tadbirlarini xolisona va mustaqil o‘tkazadigan ichki audit va moliyaviy nazorat xizmati tashkil etiladi;

– mablag’larning sarflanishi yuzasidan yuqori turuvchi vazirlikka (idoraga) har chorakda belgilangan tartibda hisobot beriladi;

– Davlat budgetidan ajratilgan mablag’lar, xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, amalga oshirilayotgan loyihamalar hamda tasarrufidagi mablag’lar, moddiy boyliklar va mulkdan foydalanish to‘g’risidagi boshqa ma’lumotlar o‘z rasmiy veb-saytlariga muntazam joylashtirib boriladi;

– mablag'lardan oqilona va samarali foydalanish, jumladan xodimlar mehnatiga haq to'lash va stipendiya to'lovlarini o'z vaqtida hamda to'liq amalga oshirish uchun javobgarlik tegishli oliy ta'lim muassasasi rahbari zimmasiga yuklanadi;

– moliyaviy mustaqillik berilayotgan davlat oliy ta'lim muassasalari yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan budget mablag'larini oluvchi davlat tashkiloti hisoblanadi;

– talabalarni to'lov-kontrakt asosida o'qitish qiymati oliy ta'lim muassasasi tomonidan ta'lim xizmatlari bozoridagi talab va taklifdan kelib chiqib, biroq tegishli yo'naliш bo'yicha davlat oliy ta'lim muassasalarida belgilangan bazaviy to'lov-kontrakt qiymatidan uch baravardan ortiq bo'limgan miqdorda belgilanadi;

– bakalavriat ta'lim yo'naliшlari, magistratura va klinik ordinatura mutaxassisliklari kesimida qabul shartlarida to'lov-kontrakt qiymati tabaqalashtirilgan miqdorlarda belgilanishi mumkin.

Mamlakatda ta'lim tizimini, xususan oliy ta'lim tizimining moliyaviy boshqaruv sohasidagi islohotlarni izchil davom ettirish, xorij tajribasini o'rgangan holda mustahkam huquqiy bazani yaratish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Xulosa. Mamlakatimizda oliy ta'lim tizimi faoliyatini rivojlantirish va tartibga solish borasida qabul qilingan ayrim hujjatlarning asosiy mazmuni bilan yuqorida tanishib chiqdik. Tadqiqot natijasida mazkur hujjatlarni o'rganish va tahlil etish orqali quyidagi xulosalar shakllantirildi:

"Oliy ta'lim muassasalari boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlarining namunaviy shtatlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 2017 yil 6 fevraldag'i qo'shma qarorga asosan lavozimlar va ularning shtat birligi asosan talabalar soni va yer maydoniga bog'liq holda o'zgaruvchan qilib belgilangan. Biroq, fikrimezcha ayrim lavozim va shtat birliklarida ba'zi nomuvofiqliklar mavjud. Jumladan, mazkur qarorga asosan Magistratura bo'limi shtat birligiga e'tibor beradigan bo'lsak, bo'limda bo'lim boshlig'i va 1 ta uslubchi lavozimlari joriy etilgan. Deylik OTM Magistratura bo'limida 300 nafar magistr tahsil oladi. Yuqoridagi yo'rqnomaiga asosan bo'libda 1,0 shtat birligi bo'lim boshlig'i, 1 shtat birligida uslubchi lavozimlariga shtat birliklari mavjud. 300 nafar magistr bilan ishlashning naqadar murakkab jarayonligi, bo'limda ishning ko'pligini hisobga oladigan bo'lsak, bo'lim boshlig'i va ayniqsa uslubchining bajaradigan ishi naqadar og'irligini guvohi bo'lishimiz mumkin. Qolaversa, uslubchining oladigan ish haqi va bajaradigan ish yuki o'rtasida katta tafovut mavjudligini guvohi bo'lishimiz mumkin. Bunday vaziyatni Sirtqi bo'limda ham guvohi bo'lishimiz mumkin. Sirtqi bo'lim shtat birliklari talabalar soniga bog'lanmagan. 200 ta talabasi bor Sirtqi bo'limda ham, 1000 dan ortiq talaba ta'lim oladigan bo'limda ham shtat birliklari bir hil. Amaliyot jarayonia OTMning Sirtqi bo'limdagi ish jarayoni, talabalar bilan aloqada bo'lish, ular to'g'risidagi ma'lumotlarni uzlucksiz yangilab borish, zarur hujjatlarni rasmiylashtirish, dars jarayonlarini nazorat qilish, sirtqi bo'lim talabalarining aksariyat qismi ishlashini hisobga olib, ish joyi bilan aloqalarni o'rnatish juda katta mehnatni talab qiladi.

Yuqoridagi fikrlarlan xulosa qilib, OTMlarining Magistratura va Sirtqi bo'limlarida talabalar (magistrlar) sonidan kelib chiqib, "Bo'lim boshlig'i o'rinosari" lavozimlarini joriy etish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrdagi "Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-60 va "Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy

mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-61-sonli qarorlari orqali moliyaviy mustaqillik berilgan davlat oliy ta'lif muassasalariga bir qator akademik va moliyaviy sohalarda vakolatlar berilganligiga qaramasdan, hanuzgacha amalda o'z natijasini bermayapti. Xususan, mazkur OTM to'lov-kontrakt summalarini mustaqil belgilash vakolatiga ega bo'lsalarda, biroq hanuzgacha ijtimoiy mo'ljallangan to'lov-kontrakt hajmida ta'lif berishmoqda. Natijada OTM o'rtasida raqobat susaygan, xususan nodavlat oliy ta'lif muassasalarining ko'payishi natijasida aksariyat salohiyatli pedagog-xodimlar davlat OTMdan ketishiga to'g'ri kelmoqda.

- oliy ta'lif muassasalarida katta mablag' aylanishini hisobga olib, bo'sh turgan mablag'lardan samarali foydalanish, shuningdek oliy ta'lif muassasalarida "Universitet 3.0" yoki "Universitet 4.0" modellarini joriy etishni xohlar ekanmiz rektor lavozimiga, yoxud moliya-xo'jalik ishlari bo'yicha prorektor lavozimlariga tadbirkorlik qobiliyatiga ega, haqiqiy menejerlarni tayinlash lozim deb hisoblaymiz.

- pedagog-xodimlarning ish haqlarini hisoblashda bazaviy lavozim maoshlari bilan bir qatorda barcha OTMdak KPI tizimini joriy etish zarur. Bir xil daraja, unvon va lavozimda bo'lgan xodimlar ham tabaqlashgan tarzda ish haqlari olishi lozim. Shundagina to'lanadigan haq samarali bo'ladi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda ta'lif tizimini, xususan oliy ta'lif tizimini rivojlantirish, ular faoliyatini samarali moliyalashtirish borasida bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda, bir qator yangi me'yoriy hujjatlar qabul qilinmoqda. Bunday tadbirlarni yanada kengaytirish, davlat oliy ta'lif muassasalariga "haqiqiy moliyaviy mustaqillik"ni berish hamda davlat va nodavlat oliy ta'lif muassasalari orasida sof raqobatni yuzaga keltirish maqsadga muvofiq.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Yusupbayeva A. Oliy ta'lif islohotlari: muammolar, o'zgarish va yutuqlar. <https://uzmarkaz.uz/news/oliy-talim-islohotlari-muammolar-ozgarish-va-yutuqlar>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning o'z saylovoldi dasturidagi ma'rzasasi
3. Saidov M.X. Oliy ta'lif tizimida moliyaviy boshqaruvi [Financial management in higher education]. Tashkent, Tafakkur bustoni, 2011, 432 p.
4. Jumaev N.X., Rahmonov D.A. Oliy ta'lif olishni xususiy manbalardan moliyalashtirish: nazariya va amaliyot [Private funding for higher education: theory and practice]. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar – Economy and innovative technologies, 2018, September-October, no. 5
5. Mahmudov A. Oliy ta'lif muassasalarida moliyaviy resurslarni boshqarish mexanizmini takomillashtirish [Improving the mechanism of financial resources management in higher education institutions]. Abstract of PhD thesis. Tashkent, 2019, 45 p.
6. Po'latov D., Xurozov Z. Oliy ta'lif muassasalari hamda ularning huzuridagi ta'lif muassasalarining moliyaviy mustaqilligini oshirish [Increasing the financial independence of higher education institutions and educational institutions under them]. Business-Expert, 2019, no. 1 (133).
7. Абдухапарова Дилрабо Мирзахмат Қизи (2022). Олий таълим муассасаларини молиялаштириш моделлари. Илм-фан ва инновацион ривожланиш / Наука и инновационное развитие, 5 (3), 134-142. doi: 10.36522/2181-9637-2022-3-15
8. Sherov, Alisher Bakberganovich , & Ruzmetova, Gulira'No Atabekovna (2022). O'zbekistonda oliy ta'lif tizimi borasida amalga oshirilayotgan islohotlar va uni

- moliyalashtirishning dolzarb masalalari. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (2), 264-270.
9. Baxodirov O. Ta'lim tizimini moliyalashtirish bo'yicha xorijiy tajribalar. Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar, 2(18), 47-50, 2023.
 10. Валиев, Ш. (2023). Олий таълим муассасалари харажатларини молиялаштиришнинг хориж тажрибаси. *Iqtisodiyot va ta'lim*, 24(1), 352–360.
 11. Асамходжаева, Ш. (2023). Инсон капиталига йўналтирилган инвестицияларнинг самарадорлик кўрсаткичлари. *Iqtisodiyot Va ta'lim*, 24(1), 102–106.
 12. Салимов, А. (2023). Олий таълим тизимида амалга оширилган ислоҳотлар ва уларнинг самарадорлигини ошириш ўйллари. *Iqtisodiyot Va ta'lim*, 24(1), 469–474.
 13. Osei-Kuffour, F., Peprah, W. K. (2020). Correlate of Income Diversification and Financial Sustainability of Private Tertiary Institutions as Moderated by Institutional Profile, International Journal of Academic Research in Accounting, Finance and Management Sciences 10 (3): 10-19.
 14. A.Ramírez, E.Calderón, N.Morales, R.Burgos, R.Ramírez Hidden Costs in Higher Education: A Literature Scientific Analysis. WSEAS transactions on business and economics
 15. D.Vicol Financing higher education. a current debate. European union's structural challenges: the way forward | eurint 2019.
 16. T.Zatonatska, O.Rozhko , I.Lyutyy, N.Tkachenko, O.Anisimova Global Practices of Higher Education Financing: Approaches and Models. December 2019, Khazar Journal of Humanities and Social Sciences 22(4):95-112 22(4):95-112
 17. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 20 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish, talabalar o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida"gi 393-sonli qarori
 18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrda "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli farmoni
 19. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 3 dekabrdagi "Oliy ta'lim muassasalarini bosqichma-bosqich o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tkazish to'g'risida"gi 967-sonli qarori
 20. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni.
 21. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrdagi "Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-60-sonli qarori
 22. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrdagi "Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-61-sonli qarori

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

Nº 8 (4) – 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари**” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
маъсулити чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).